

**Maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagoglarining uzluksiz kasbiy rivojlanishida
“Metodik mahorat kuni” va “Metodik mahorat soati” tadbirlarining ahamiyati****Eshkuziyeva Mohira Raimqul qizi**

Sirdaryo viloyati pedagogik mahorat markazi

Maktabgacha ta’lim bo’yicha metodisti

Annotatsiya: Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tizimi jamiyat taraqqiyotining asosiy poydevorlaridan biri sifatida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bolalarning ilk yoshdagi rivojlanishi ularning kelajakdagi shaxsiyati, ta’lim olishdagi muvaffaqiyati va ijtimoiy moslashuvida hal qiluvchi rol o’ynaydi. Shu sababli, MTT pedagoglarining kasbiy mahorati va malakasi doimiy ravishda oshirib borilishi zarur. Pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta’minlashda “Metodik mahorat kuni” va “Metodik mahorat soati” kabi tadbirlarning o’rni beqiyosdir. Ushbu maqolada mazkur tadbirlarning ahamiyati, ularning pedagoglar malakasini oshirishga ta’siri va MTT tizimida uzluksiz ta’limni ta’minlashdagi roli atroflicha ko’rib chiqiladi.

Kalit so’zlar: Metodik mahorat kuni, Metodik mahorat soati, malaka oshirish, interfaol, ochiq mashg’ulot, ta’lim sifati va h.k.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyunda “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida” gi 231-sonli qarori qabul qilindi. Ushbu qaror pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanishining huquqiy va tashkiliy jihatdan tartibga soluvchi muhim me’yoriy hujjat bo’lib xizmat qildi. Mazkur buyruq asosida pedagog kadrlarning kasbiy rivojlanishi bo’yicha xorijiy tajribalarga asoslangan yaxlit tizim yo’lga qo’yildi. Bu yondashuvlar xorijiy ilg’or tajribalar bilan hamohang tuzilgan bo’lib ta’lim tizimini rivojlantirish uchun xizmat qiladi.



Ushbu yondashuvlarni maktabgacha ta'lim tizimiga tadbiq etish maqsadida Prezidentimiz tomonidan 2024-yil 30-sentabrda “Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi farmoni qabul qilindi. Ushbu farmonga asosa maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2024-yil 8-noyabrdagi “Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida malaka oshirishning “Metodik mahorat kuni” va “Metodik mahorat soati” tadbirlarini bosqichma-bosqich joriy etish to'g'risida” gi 362-sonli buyrug'i qabul qilinib, yurtimizda mavjud barcha davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 2025-yil 7-yanvardan boshlab “Metodik mahorat kuni” va “Metodik mahorat soati” tadbirlari tashkil etilishi belgilandi.

Ushbu buyruqning joriy etilishi “Metodik mahorat kuni” va “Metodik mahorat soati” tadbirlarini faqatgina ixtiyoriy tashabbusdan ko'ra, majburiy va tizimli malaka oshirish shakllariga aylantiradi. Bu esa MTT pedagoglarining kasbiy mahoratini uzluksiz ravishda oshirib borish, zamonaviy ta'lim standartlariga moslashish va pirovardida, bolalarga sifatli ta'lim va tarbiya berish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Lekin aslida “Metodik mahorat kuni” va “Metodik mahorat soati” tadbirlarining mohiyati qanday?

“Metodik mahorat kuni” – bu ma'lum bir vaqt oralig'ida (oyda ikki marta) MTT pedagoglari uchun tashkil etiladigan kompleks o'quv-uslubiy tadbir. Ushbu kunda pedagoglar tajriba almashish, yangi metodika va texnologiyalarni o'zlashtirish, ilg'or pedagogik g'oyalar bilan tanishish, shuningdek, amaliy ko'nikmalarini takomillashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. “Metodik mahorat kuni” doirasida ochiq mashg'ulotlar, mahorat darslari, seminar-treninglar, davra suhbatlari va interfaol mashg'ulotlar o'tkazilishi mumkin. Bu tadbir pedagoglarni doimiy izlanishga, o'z ustida ishlashga va ijodiy yondashuvni rivojlantirishga undaydi.

“Metodik mahorat soati” esa nisbatan qisqaroq, ammo muntazam ravishda o'tkaziladigan uslubiy yordam shakli hisoblanadi. Odatda, bu haftalik yoki ikki haftalik



uchrashuv bo'lib, unda pedagoglar individual tartibda o'zaro fikr almashadilar, muammoli vaziyatlarni muhokama qiladilar, metodik tavsiyalar oladilar va amaliy maslahatlar berishadi. “Metodik mahorat soati” pedagoglarga kundalik faoliyatlarida duch keladigan savollarga tezkor javob topish, shuningdek, kasbiy hamkorlikni mustahkamlash imkonini beradi. Bu tadbir doimiy ravishda o'z-o'zini tahlil qilish va refleksiyaga chorlaydi. Ta'lim sohasidagi yangiliklar, ilg'or pedagogik texnologiyalar va bolalar psixologiyasidagi so'nggi yutuqlar bilan tanishish imkoniyatini yaratadi. Pedagoglar o'z bilimlarini muntazam ravishda yangilab borishlari shart, chunki ta'lim jarayoni statik emas, balki doimiy o'zgarishda va rivojlanishda.

Nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash, ochiq mashg'ulotlar orqali tajriba almashish va mahorat darslarida ishtirok etish orqali pedagoglar o'zlarining pedagogik mahoratini oshiradilar. Bu esa o'z navbatida bolalarga ta'lim berish jarayonining samaradorligini oshiradi. “Metodik mahorat kuni” va “Metodik mahorat soati” pedagoglarni yangi va innovatsion metodikalarni o'rganishga, ularni o'z faoliyatlariga tatbiq etishga rag'batlantiradi. Bu bolalarning qiziqishlarini uyg'otish, ularda ijodiy fikrlashni rivojlantirish va ta'lim jarayonini yanada jozibador qilishga yordam beradi. Doimiy rivojlanish imkoniyatlari pedagoglarning kasbiy motivatsiyasini oshiradi. O'zaro hurmat va qo'llab-quvvatlash muhiti ularni yangi cho'qqilarni zabt etishga ilhomlantiradi, kasbiy faoliyatlaridan qoniqish hissini oshiradi. Malakali va zamonaviy bilim hamda ko'nikmalarga ega bo'lgan pedagoglar bolalarga yanada sifatli ta'lim va tarbiya berish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu tadbirlar pedagoglarning o'z malakasini oshirish, yangi bilimlarni egallash, ilg'or tajribalarni almashish va shu orqali ta'lim sifatini yaxshilashda asosiy platformalardan biri bo'lib xizmat qiladi.

“Metodik mahorat kuni” va “Metodik mahorat soati” tadbirlari maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglarining uzluksiz kasbiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etuvchi samarali mexanizm hisoblanadi. Bu tadbirlar pedagoglarning bilimlarini yangilash, amaliy ko'nikmalarini takomillashtirish, innovatsion yondashuvlarni joriy etish, tajriba almashish va kasbiy motivatsiyasini oshirishga xizmat qiladi. Natijada, MTT tizimida ta'lim sifati



yuksaladi, bolalar har tomonlama rivojlanadi va jamiyatning kelajagi uchun mustahkam poydevor yaratiladi. Ushbu tadbirlarni muntazam va samarali tashkil etish orqali mamlakatimizda maktabgacha ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, “Metodik mahorat kuni” va “Metodik mahorat soati” tadbirlari maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglarining uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta'minlaydigan, ularning bilim va ko'nikmalarini doimiy yangilab borishga yordam beradigan, innovatsiyalarni joriy etishga undaydigan va ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladigan samarali vositalardir. Bu tadbirlar pedagoglarning nafaqat kasbiy, balki shaxsiy o'sishiga ham katta hissa qo'shadi, natijada ular bolalarga yanada sifatli va samarali ta'lim-tarbiya berishga qodir bo'ladilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi PQ-4312-son. 2019.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” gi PQ-231-son. 21.06.2024.
3. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining “Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida malaka oshirishning “Metodik mahorat kuni” va “Metodik mahorat soati” tadbirlarini bosqichma-bosqich joriy etish to'g'risida” gi 362-sonli buyruq. 08.11.2024.
4. Toshpo'latova D.N. ““Metodik kun” – pedagogik mahoratni oshirish omili”. “Xalq ta'limi” jurnali, 2024, №1. – B. 62-67.